

BOBURNING YOSHLARNI MEHNATGA VA KASB-HUNARGA YO'LLASHDAGI QARASHLARI

Umarov Rahim Tojiyevich¹, Umarova Nafisa Rahimovna².

¹*A.Qodiriy nomidagi JDPI Texnologik ta'lif kafedrasini dotsenti,*

²*Navoiy shahar 16-AFCHO'IM o'qituvchisi*

e-mail: rahim@jspi.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarni mehnatga va kasb-hunarga yo'llashda Boburning asarlaridagi hayotiy hamda ezgu g'oyalardan Texnologik ta'lif yo'nalishi talabalariga tushunchalar berishga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Bobur, mehnat, mehnat ahli, kasb-hunar, ilm va ma'rifat, she'r, asar, insonning qadr-qimmati.*

Аннотация: Эта статья направлена на то, чтобы дать студентам понимание жизненно важных и благородных идей в работах Бобура по направлению молодых людей к работе и карьере.

Ключевые слова: *Бабур, труд, чернорабочие, профессия, наука и просвещение, поэзия, труд, человеческое достоинство.*

Annotation: *This article focuses on giving students an understanding of the life and noble ideas in Bobur's works in directing young people to work and careers.*

Keywords: *Babur, labor, laborers, profession, science and enlightenment, poetry, work, human dignity.*

Qadimda sharq mamlakatlarida ota-bobolarimiz bolani yoshlidan mehnatga o'rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor bergenlar. Farzandlarini layoqati, qobilyatiga qarab tarbiyalaganlar. Shu o'rinda har bir ota-onasi oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratishgan. Shu yo'lda doimiy qayg'urishgan. Bir qator shoir-u mutafakirlar o'zlarining asarlarida bu masalaga jiddiy ahamiyat berishgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh o'z zamonasining iste'dodli davlat arbobi, yetuk sarkarda, hassos shoir, talantli adib, adabiyot va san'atni beqiyos qadrlovchi hamda ilmu fan ravnaqi uchun qayg'urgan buyuk donishmand alloma bo'lishi bilan birlgilikda o'z davrida ulkan bunyodkorlik ishlarini ham amalga oshirgan. Jumladan, uning she'rlarida

insonning hayoti, mehnati va shani nihoyatda ulug‘langan. Biz ushbu maqolada yoshlarni mehnatga va kasb-hunarga yo‘llashda Boburning asarlaridagi hayotiy hamda ezgu g‘oyalardan Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga tushunchalar berishga e’tibor qaratamiz.

Boburning insonning qadr-qimmati to‘g‘risidagi insonni o‘zi yashayotgan moddiy olam go‘zalliklaridan va er ne’matlaridan bahramand bo‘lishiga undovchi chaqiriqlari alohida mazmun kasb etadi. Bobur haqiqiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lish uchun axloqning barcha talablariga amal qilish kerakligini va shundagina kishi el hurmatiga, katta baxt-saodatga sazovor bo‘lishini uqtirib, muhtoj va mazlum mehnatkash xalqqa doim g‘amxo‘rlik va e’tiborli bo‘lishga chaqiradi. Binobarin, bizning davrimizgacha etib kelgan uning asarlari va amalga oshirgan ezgu ishlari jahon tarixchilari va sharqshunoslarini hamon qiziqtirib kelmoqda. Boburning tafakkur doirasi nihoyatda keng, xotirasi esa kishini hayratga soladigan darajada yorqindir. Uni tabiatning barcha mavjudotlari, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli-tuman sohalari-yu, hodisalari qiziqtirgan. U o‘zining hikmatona fikrlarida nafs xohishlariga berilmaslikka, chunki nafs kishini yomon yo‘llarga olib borishi mumkinligi, shuning uchun kishi o‘z nafsiyi olishi, aqlga va halol mehnatga asoslanib, rejali ish olib bormog‘i kerakligini ta’kidlaydi:

Nafsning kasbidur havoyu havas,
Ruh oldidadur bular yaramas,
Nafs dushman durur, yaqin bilgil,
Do‘stim, bu so‘zimni chin bilgil.

Shoir kishilarni rostgo‘y bo‘lishga, mehnatni va mehnat ahlini qadrlashga chorlaydi, Odamlar bir-biriga yaxshilik qilishi, qo‘llab-quvvatlashi insonga xos ezgu xislat va oliyjanob fazilatlardan biri ekanligini ko‘p bora ta’kidlaydi. U hattoki podshoh Ibrohim Lo‘diyni jangda engib, Hindistonda butun hokimiyatni qo‘lga olganidan keyin ham uning Bayda ismli onasini o‘z huzuriga chaqirib, insof va diyonat yuzasidan sobiq shoh avlodiga shafqat ko‘rsatib, o‘zining onasi qatorida ko‘rib, katta iltifotlar ko‘rsatadi. Biroq malika o‘z o‘g‘lining xunini olish maqsadida Boburning oshpazi Ahmad Chashnagirni bir bo‘lak zaharni podshoh

oshiga qo'shib berishga undaydi va boylik evaziga bu qabihlikka ko'ndiradi. Oshpaz mazkur zaharni ovqatga qo'shib beradi. Zahar asta –sekin ta'sir qilib sog'ligi yomonlashadi. Ana shu voqeadan keyin saroy ahli malika Baydani ko'rnamakligi uchun qatl qilishni taklif qiladi. Lekin Bobur unga zulm ko'rgazmaydi. Bu uning oliyjanobligi va insoniy fazilatlar sohibi ekanligidan darak beradi.

Bobur o'z davrida ilm va ma'rifat ahlini yuksak qadrlagan hamda ularga homiylik qilgan. Quyidagi ruboyisida esa ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaslik, ilm o'rganuvchidan toliblik, shaydolik, bu yo'lda uchraydigan qiynchiliklarga sabr-toqat qilish lozimligi va ishtiyooq bilan astoydil mehnat qilish kerakligini ta'kidlaydi:

Kim, yor anga ilm tolibi, ilm kerak,
O'rgangani ilm tolibi ilm kerak,
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

Bobur o'z yurtidan uzoq Hindstonda o'z vatanini bir umr sog'inib yashasada o'zining adabiy faoliyati bilan birgalikda o'z navbatida hind xalqining urf-odatlari va an'analarini hurmat qildi hamda uni boyitishga ko'maklashdi. U Afg'onistonda va Hindistonda xalq hunarmandchilagini rivojlantirdi, imoratlar va madrasalar, hammomlar, yo'llar, karvonsaroylar soldirdi, hovuz, quduq va ariqlar qazdirdi. Bu borada uning G'azna viloyatini suv bilan ta'minlaydigan suv to'g'onini qayta tiklashi va viloyat xoo'jaligini ko'tarishi uchun ko'p mablag' va mehnat sarflaganligi, Qobul, Ningnahor, Pamg'on viloyatlarida esa aylanib oqishi natijasida ko'p miqdordagi suv yo'qolib ketadigan ariqlarni to'g'ri qilib qazdirganligi, u viloyatlarda bo'limgan olcha, qovun, banan, shakarqamish va boshqa mevali daraxtlarni keltirib o'tkazdirganligi, Agra shahrida "Hasht behisht" bog'i barpo etganligi fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Bobur o'z o'g'li Muhammad Humoyunga ham ana shu yaratuvchanlik ishlari, ya'ni el-yurt va mamlakat obodonchiligi bilan shug'ullanish kerakligini ta'kidlaydi, o'zi boshlab bergen xayrli ishlarni oxirigacha etkazishni so'rab, xatlar

yozib tegishli nasihatlar qiladi.

Shuningdek, Bobur va uning avlodlari Hindistonda qudratli markaz lashgan davlvt barpo qilib 332 yil boshqardi hamda shu davrda bir qator ibratlari bunyodkorlik ishlarini ham amalga oshirdi. Shulardan biri dunyoning yetti mo’jizasidan biri deb tan olingan yirik va ko‘rkam inshoot “Tojmahal”ni qurdirdi.

Bobur mehnat va ilm-hunar ahlini sharaflaydi, hamisha xalq bilan birga bo‘lishi, xalq tashvishi bilan yashashi, xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishni o‘z burchi deb bilgan. Shu sababli hukmronlik davrida xalqni azob-uqubatdan butunlay qutqarish hamda engilliklar yaratish uchun soliq solishda ham bir qator imtiyozlar beruvchi farmonlar chiqargan. Mana shu jihatdan qaraganda, u xalqparvar va gumanist shoir bo‘lish bilan bir qatorda o‘z davrining yirik va yetuk arbobi, podshosi sifatida hamisha xalq manfaat larini himoya qilganligini ham ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, Bobur mashhur shoh va shoir sifatida insoniyat tarixida o‘chmas nom qoldirdi. U tomonidan amalga oshirilgan ezgu va bunyodkorlik ishlari haqida Texnologik ta’lim bo‘yicha tahsil oladigan talabalarga nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomida atroflicha tushunchalar berish lozim. Bu esa yoshlаримизда о‘тмish ajdодларимизга nisbatan faxr va g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va ularda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Turg‘un Fayziev, Temuriylar shajarası.-T: Yozuvchi,1994y., 352 b.
2. Z.M.Bobur Devoni (Ma’sul muharrir O‘zFA muxbir a’zosi A.P. Qayumov), “Fan” ,1994 y.,144 b.
3. Qosimov U., Umarov R.T. Ulug‘ zotlarning izin bosgan er. Jizzax haqqa ti, 2019 yil 13-fevral, №14 ,4-sahifa.